

**XALQARO ORGANLARGA MUROJAAT QILISH HUQUQI VA UNI
AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI**

Nusratova Nodirabegim Miroid qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi inson huquqlari xalqaro himoyasi tizimining markaziy institutlaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquq ichki huquqiy himoya vositalari tugatilganidan keyin shaxsga buzilgan huquqlarini xalqaro darajada tiklash imkonini beradi. Uning huquqiy mohiyati, shakllanish bosqichlari, xususiyatlari hamda asosiy ta'minlash mexanizmlari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi, individual kommunikatsiya, BMT shartnomaviy qo'mitalari, Yevropa inson huquqlari sudi, ichki himoya vositalari, kvazisud organlari.*

Inson huquqlarini himoya qilish sohasida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keskin o'zgarish ro'y berdi. Avval bu masala asosan davlat ichki ishi hisoblangan bo'lsa, BMTning tashkil etilishi va keyingi xalqaro hujjatlarning qabul qilinishi bilan inson huquqlarining buzilishi xalqaro hamjamiyatning umumiy tashvishi sifatida e'tirof etila boshlandi. Aynan shu jarayonning natijasi sifatida shaxs avval ko'rinmagan, qonuniy faolligi bo'lmagan xalqaro huquqiy makonga chiqishga imkon topdi. Shaxsning xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi mana shu tarixiy o'zgarishning eng aniq ifodalaridan biri hisoblanadi va bugungi kunda u

xalqaro inson huquqlari himoyasining markaziy institutlaridan birini tashkil etadi.¹ Mazkur huquqning mohiyati shundan iboratki, u shaxsga, ya'ni jismoniy yoki ayrim hollarda yuridik shaxsga, milliy himoya vositalari samara bermagan vaziyatda o'z buzilgan huquqlarini xalqaro darajada tiklash imkonini beradi. Shu jihatdan u o'ziga xos "oxirgi imkoniyat" yoki ehtiyot mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu huquq qator o'ziga xos belgilarga ega: birinchidan, u individual xarakterga ega, ya'ni xalqaro organga davlat emas, balki shaxsning o'zi murojaat qiladi; ikkinchidan, u milliy himoyaga qo'shimcha, ya'ni subsidiar tarzda amal qiladi; uchinchidan, u faqat davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnoma yoki tegishli protokol asosida amalga oshiriladi. Aynan oxirgi belgi mazkur huquqning samaradorligini ko'p jihatdan davlat irodasiga bog'lab qo'yadi.

Xalqaro huquqiy adabiyotda ushbu huquq turli atamalar bilan ifoda etiladi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 34-moddasida u "individual murojaat" shaklida belgilangan. Amerikalararo tizimda "petitsiya" atamasi qo'llaniladi. BMTning shartnomaviy organlari amaliyotida esa "individual kommunikatsiya" atamasi rasman qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida "murojaat" atamasi qo'llanilib, u milliy huquq doirasidagi keng tushunchaga to'g'ri keladi. Ushbu atamalar o'rtasidagi farq tasodifiy emas: ularning har biri tegishli tizimning huquqiy an'analari va protsessual xususiyatlarini aks ettiradi, biroq ularning umumiy mazmuni bir – shaxsning xalqaro organga bevosita kirish huquqini ifodalashdir.

¹Saidov A.X. Xalqaro huquq. – T.: Adolat, 2018. – B. 412.

Ushbu institutning huquqiy poydevorini tashkil etadigan xalqaro hujjatlar ikki katta guruhga bo'linadi. Universal manbalar BMT doirasida qabul qilingan bo'lib, ularga 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi muhim o'rin tutadi. Deklaratsiyaning 8-moddasida har bir insonning konstitutsiya yoki qonun tomonidan unga berilgan huquqlari buzilgan hollarda kompetent milliy sudlar tomonidan samarali huquqiy himoya olish huquqi belgilangan.² Garchi mazkur norma to'g'ridan-to'g'ri xalqaro himoyaga emas, milliy himoyaga ishora etsa-da, u keyingi xalqaro hujjatlarning g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. Universal tizimning haqiqiy huquqiy asosi 1966-yilda qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Birinchi Fakultativ Protokolida shakllantirildi. Mazkur protokol birinchi marotaba shaxsga BMTning ixtisoslashgan organi – Inson huquqlari qo'mitasiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkonini berdi. Keyingi davrlarda shunga o'xshash mexanizmlar boshqa konvensiyalar doirasida ham joriy etildi. Bugungi kunda BMT tizimida individual murojaatlarni qabul qiluvchi sakkizta shartnomaviy qo'mita faoliyat yuritadi.

Mintaqaviy darajada esa uchta yirik tizim shakllangan. Yevropa tizimi 1950-yilgi konvensiya asosida tashkil etilgan bo'lib, uning markazida Strasburg shahridagi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi turadi. 1998-yildan kuchga kirgan 11-Protokoldan keyin barcha a'zo davlatlar fuqarolari sudga bevosita murojaat qilish imkoniga ega bo'ldilar. Amerikalararo tizim 1969-yilgi San-Xose pakti asosida ish ko'radi va u ikki bosqichli tuzilmaga ega: dastlab Komissiya,

²Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 8-modda. URL: <https://www.un.org/uz/about-us/universal-declaration-of-human-rights>.

keyin esa zaruriyat bo'yicha Sud. Afrika tizimi 1981-yilgi Banjul xartiyasi asosida shakllangan bo'lib, u ham komissiya va sud tuzilmasini birlashtiradi. Ushbu uchta tizim o'rtasidagi farqlar ko'p jihatdan tarixiy va madaniy kontekst bilan izohlansada, ularning umumiy maqsadi – shaxsga huquqlari buzilgan vaziyatda xalqaro himoyaga erishish imkonini berishdir.

Xalqaro organlarga murojaat qilishning protsessual jihati alohida ahamiyatga ega. Har bir xalqaro mexanizmda murojaatning qabul qilinishi uchun ma'lum mezonlar belgilangan bo'lib, ularning eng muhimi – ichki huquqiy himoya vositalarining tugatilishi qoidasidir. Ushbu qoida xalqaro inson huquqlari himoyasining subsidiarlik tamoyilini bevosita ifodalaydi: davlat o'z hududida inson huquqlarini birinchi navbatda himoya qilishi shart, xalqaro mexanizm esa faqat milliy himoya samara bermagan vaziyatda aralashadi.³ Bundan tashqari, murojaat berish uchun belgilangan vaqt cheklovlari (Yevropa sudiga – to'rt oy, ayrim BMT qo'mitalariga – bir yil), murojaat predmetining tegishli shartnoma bilan qamrab olinishi, xuddi shu masalaning boshqa xalqaro mexanizm tomonidan ko'rib chiqilmayotganligi kabi shartlar ham mavjud.⁴

Xalqaro organ qabul qilinadigan yakuniy hujjatlarining huquqiy kuchi ham bir xil emas. Sud organlari – Yevropa, Amerikalararo va Afrika sudlari – qarorlari ishtirokchi davlatlar uchun yuridik majburiy hisoblanadi. BMTning shartnomaviy

³Nowak M. U.N. Covenant on Civil and Political Rights: CCPR Commentary. 2nd ed. – Kehl: N.P. Engel, 2005. – P. 826.

⁴Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 35-moddasi. URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Convention_ENG.



qo'mitalari, shuningdek Inson huquqlari Kengashi tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar formal yuridik majburiy kuchga ega bo'lmasa-da, ular xalqaro huquqshunoslikda "vakolatli huquqiy talqin" yoki "kvazi-sud qarorlari" sifatida tan olinadi. T. Buergenthal ta'kidlaganidek, mazkur hujjatlarning siyosiy va huquqiy ta'siri ularning rasmiy yuridik kuchidan ko'ra ko'proq davlatlarning xalqaro hamjamiyat oldidagi obro'-e'tibori bilan bog'liq.⁵ Aynan shu jihat davlatlarni kvazi-sud qarorlarini bajarishga undaydi.

Mazkur institutning amaliy ahamiyatini statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil davomida sakkizta shartnoma qo'mitasi tomonidan jami 2917 ta individual murojaat qayta ishlangan.⁶ Ushbu raqamlar xalqaro organlarga murojaat qilish institutining shaxslar uchun zarur huquqiy mexanizmga aylanganini va u bo'yicha ish hajmi yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, shaxsning xalqaro organlarga murojaat qilish huquqini umumlashtirilgan tarzda quyidagicha tavsiflash mumkin: bu – davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan tegishli xalqaro shartnoma asosida shaxsga, ichki huquqiy himoya vositalari tugatilganidan keyin, o'z huquq va

⁵Buergenthal T. The Evolving International Human Rights System // American Journal of International Law. – 2006. – Vol. 100, No. 4. – P. 791.

⁶BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi. Individual Communications Procedures of Treaty Bodies (2025). URL: <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/individual-communications-procedures-treaty-bodies>

manfaatlarini tiklash maqsadida universal yoki mintaqaviy sud yoxud kvazi-sud organlariga bevosita murojaat qilish imkonini beruvchi xalqaro huquqning maxsus institutidir. Mazkur institut nafaqat shaxsning huquqiy maqomini kuchaytiradi, balki davlatni xalqaro standartlarga muvofiq harakat qilishga ham undaydi. Shu jihatdan u zamonaviy xalqaro inson huquqlari himoyasi tizimining muhim asosini tashkil etadi va kelgusi tadqiqotlar uchun dolzarb ilmiy yo'nalish bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan yangi tahrirdagi). <https://constitution.uz>.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan. <https://www.un.org/uz/about-us/universal-declaration-of-human-rights>.
3. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning Birinchi Fakultativ Protokoli. 1966-yil 16-dekabr. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>.
4. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi. Rim, 1950-yil 4-noyabr. https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Convention_ENG.

5. Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi (San-Xose pakti). 1969-yil 22-noyabr.
6. Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika xartiyasi (Banjul xartiyasi). 1981-yil 27-iyun. <https://au.int/en/treaties/african-charter-human-and-peoples-rights>.
7. Saidov A.X. Xalqaro huquq. – Toshkent: Adolat, 2018.
8. Nowak M. U.N. Covenant on Civil and Political Rights: CCPR Commentary. 2nd ed. – Kehl: N.P. Engel, 2005.
9. Buergenthal T. The Evolving International Human Rights System // American Journal of International Law. – 2006. – Vol. 100, No. 4. – pp. 783–807.
10. BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining rasmiy veb-sayti. <https://www.ohchr.org>.
11. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining rasmiy veb-sayti. <https://www.echr.coe.int>.
12. BMT shartnomaviy organlarining yurisprudensiya ma'lumotlar bazasi. <https://juris.ohchr.org>.